



TIJORAT BANKLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGIGA OID ILMIY QARASHLAR VA NAZARIY YONDASHUVLAR

SCIENTIFIC VIEWS AND THEORETICAL APPROACHES TO THE FINANCIAL STABILITY OF COMMERCIAL BANKS

***1Abdishukurov Sherzod
Shavkat o'g'li***

*¹Toshkent xalqaro universiteti mustaqil izlanuvchisi.
G-mail: sherzodliono1@gmail.com*

Uzb. - Ushbu maqolada tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi tushunchasi, uning baholash mezonlari va iqtisodiyot barqaror rivojlanishidagi ahamiyati tahlil qilingan. Bank moliyaviy barqarorligining asosiy ko'rsatkichlari sifatida likvidlik darajasi, kapital yetarliligi, daromadlilik, aktivlar sifati va xavf-xatarlarni boshqarish qobiliyati alohida ta'kidlangan. Shuningdek, mamlakat moliyaviy tizimi barqarorligi va iqtisodiy o'sish uchun banklarning barqaror faoliyati muhim o'rinn tutadi. Ilmiy tadqiqotlar olib borishning dolzarbligi va kelgusidagi ahamiyati asoslab berilgan.

Eng. - This article analyzes the concept of financial stability of commercial banks, its assessment criteria, and its importance for the sustainable development of the economy. Key indicators of a bank's financial stability, such as liquidity, capital adequacy, profitability, asset quality, and risk management capacity, are highlighted. The paper emphasizes the crucial role of stable banking activities in ensuring the resilience of the financial system and supporting economic growth. The relevance and future significance of conducting scientific research in this field are also substantiated.

Annotation

Kalit so'zlar:

Keywords:

❖ *moliyaviy barqarorlik, tijorat banki, kapital yetarliligi, likvidlik, daromadlilik, xavf-xatarlar, bank tizimi, iqtisodiy o'sish.*
 ❖ *financial stability, commercial bank, capital adequacy, liquidity, profitability, risks, banking system, economic growth.*

Kirish.

Har qanday mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti va moliyaviy tizimining muvaffaqiyati tijorat banklarining barqaror faoliyati bilan chambarchas bog'liq. Bugungi kunda moliyaviy barqarorlik bank faoliyati samaradorligini belgilovchi mezon bo'lib, butun moliyaviy tizim barqarorligini ta'minlovchi asosiy omil sifatida qaralmoqda.

Moliyaviy barqarorlik deganda bankning majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajarishi, ichki-tashqi xavf-xatarlarga qarshi tura olishi, uzoq muddatli va daromadli faoliyatni ta'minlash qobiliyati tushuniladi. Bunday barqarorlik, avvalo, bankning likvidlik darajasi,

to'lov qobiliyati, kapital yetarliligi va aktivlar sifatining yuqoriligi orqali namoyon bo'ladi. Tijorat banklari iqtisodiyotda moliyaviy vositachilik vazifasini bajaradi: jamg'armalarni jalg qilib, iqtisodiy tarmoqlarga kredit va investitsiya shaklida yo'naltiradi. Shu bois ularning barqarorligi milliy iqtisodiyot uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Bankning moliyaviy barqarorligi bir necha asosiy mezonlar orqali baholanadi: likvidlik darajasi, kapital yetarliligi, daromadlilik, aktivlar sifati hamda xavflarni boshqarish qobiliyati. Likvidlik – bankning qisqa muddatli majburiyatlarni qoplash qobiliyatini anglatsa, kapital yetarliligi

bankning potensial zararlarni bartaraf etishdagi zaxira salohiyatini ifoda etadi. Daromadlilik esa bankning moliyaviy samaradorligini aks ettiradi. Shuningdek, aktivlar sifati va diversifikatsiya darajasi hamda xavflarni aniqlash, baholash va samarali boshqarish mexanizmlari moliyaviy barqarorlikning tarkibiy qismlaridir.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda bank tizimidagi islohotlar aynan barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan. Banklar kapital bazasini oshirish, moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga moslashtirish, xavf-xatarlarni boshqarish tizimlarini takomillashtirish orqali o'z barqarorligini kuchaytirmoqda. Chunki barqaror banklar iqtisodiyotni moliyalashtirish, yangi loyihalarni qo'llab-quvvatlash va kichik-o'rta biznes rivojiga xizmat qiladi.

Xulosa sifatida qayd etish joizki, tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi – milliy iqtisodiyot barqaror rivojlanishining asosiy kafolatidir. Mazkur yo'nalishda ilmiy tadqiqotlar olib borish bank barqarorligini ta'minlash, xavf-xatarlarni boshqarish va moliyaviy tizim samaradorligini oshirish uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Moliyaviy barqarorlik tushunchasiga nisbatan turli ilmiy maktab va olimlar tomonidan turlicha yondashuvlar mavjud. Masalan, Frederik Mishkin o'z tadqiqotlarida moliyaviy barqarorlikni moliya institutlarining o'z funksiyalarini uzluksiz bajarish qobiliyati sifatida ta'riflaydi. Uning fikricha, moliyaviy tizimdag'i har qanday izdan chiqish holati (likvidlik inqirozi, bankrotlik, ishonchsizlik va h.k.) iqtisodiyot faolligiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi [1].

King va Levinning ilmiy qarashlarida moliyaviy barqarorlik iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri sifatida talqin qilinadi. Ularning nazariyasiga ko'ra, barqaror moliya institutlari orqali sarmoyalar manzilli va samarali

taqsimlanadi, bu esa iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [2].

Xalqaro amaliyotda esa Bazel qo'mitasining standartlari asos bo'lib xizmat qiladi. Bazel III talablariga muvofiq, banklar stress holatlarda ham barqaror faoliyat yuritish uchun yuqori sifatli kapital zaxiralariga ega bo'lishi shart. Bu talablar moliyaviy xavflarning oldini olish va to'g'ri boshqarishni ta'minlashga qaratilgan [3].

Skott va Rouz esa moliyaviy barqarorlikni mijozlar ishonchini ta'minlovchi omil sifatida ta'riflaydi. Ularga ko'ra, bank o'z mijozlarining mablag'larini himoya qilishi va o'z faoliyatini bozordagi o'zgarishlarga qaramay uzluksiz amalga oshirishi lozim [4].

Jahon banking sobiq bosh iqtisodchisi J.Stiglis esa bank barqarorligini umummilliy iqtisodiy barqarorlikning asosi sifatida qarab, davlat nazorati va tartibga solishning rolini kuchaytirish zarurligini ta'kidlaydi [5].

O'zbekistonlik olimlar – Sh.Abdullayeva, S.Tog'ayev, M.Axmedov va boshqalar o'z tadqiqotlarida moliyaviy barqarorlikni milliy xususiyatlardan kelib chiqqan holda baholash zarurligini ta'kidlaydilar. Ularning fikriga ko'ra [6], O'zbekiston bank tizimi uchun faqatgina xalqaro mezonlar yetarli emas, balki davlat siyosatining yo'nalishlari, infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi, axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari ham e'tiborga olinishi zarur.

Moliyaviy jihatdan barqaror tijorat banklari keng ko'lamdag'i moliyaviy xizmatlar ko'rsatishga, aholi va biznesning ishonchini qozonishga, moliyaviy resurslarni samarali taqsimlashga va iqtisodiy o'sish jarayonlariga turtki berishga qodir bo'ladi. Bank o'z mijozlaridan jamg'armalarni jalb qilib, ularni qayta moliyalashtirish orqali iqtisodiyotda aylanadigan kapitalning hayot siklda faol ishtirop etadi. Bu esa bankka nisbatan ishonch darajasini oshirib, depozitlar bazasini mustahkamlash imkonini yaratadi. S.Tog'ayev ta'kidlaganidek, likvidlik va kapitalning yetarli bo'lishi bankning mablag' jalb qilish

salohiyatini belgilaydi va bu uning umumiy barqarorligiga xizmat qiladi [7].

Shuningdek, moliyaviy barqaror banklar uzoq muddatli, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish orqali real sektorda faol ishtirok etadi. Sh.Abdullayevan fikricha, bank kapitalining yetarliligi va aktivlar sifati to'g'ridan-to'g'ri kredit salohiyatini shakllantiradi. Bunday banklar xavflarni oldindan baholay oladi, tavakkalchilikni pasaytiruvchi instrumentlardan foydalanadi va iqtisodiyotning turli sohalariga yo'naltirilgan kredit faoliyatini amalga oshiradi [8].

Fikrimizcha, moliyaviy barqarorlik – bankning uzluksiz, xavfsiz va daromadli faoliyatini ta'minlovchi asosiy holat bo'lib, uning mohiyatini tushunish va to'g'ri baholash zamonaviy moliyaviy tizim uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Moliyaviy barqarorlikka oid ilmiy yondashuvlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur tushuncha universal bo'lib, u bank faoliyatining barcha jabhalarida muhim o'rinn tutadi va jahon hamjamiyatida ham, milliy iqtisodiyotlarda ham yagona strategik maqsad hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotda tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini o'rganishda iqtisodiy tahlil, qiyosiy tahlil va tizimli yondashuv kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Bank moliyaviy barqarorligini baholashda kapital yetarliligi, likvidlik, daromadlilik, aktivlar sifati va xavf-xatarlarni boshqarish kabi asosiy ko'rsatkichlar tahlil qilindi. Shuningdek, amaldagi qonunchilik, bank hisobotlari, xalqaro standartlar va mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili asosida xulosalar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi va uning funksiyalar bajarishdagi ahamiyati tijorat banklarini har qanday iqtisodiyotda asosiy pul-moliya vositachisi

sifatida faoliyati bilan belgilanadi. Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi nafaqat bank tizimining, balki milliy iqtisodiyotning ham barqaror va izchil rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy barqarorlik - bu bankning o'z majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish qobiliyati, xavf-xatarlarga qarshi tura olishi, daromadli faoliyat yuritish salohiyati va makroiqtisodiy o'zgarishlarga moslashish qobiliyatidir. Ushbu barqarorlik faqat ichki balans yoki hisobotlarda emas, balki bankning ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalarni amalga oshirishida ham o'z aksini topadi.

Moliyaviy barqarorlik, shu bilan birga, bankning zamonaviy to'lov infratuzilmasini ta'minlashda ham muhim ahamiyatga ega. Banklar hisob-kitob va to'lov tizimlari orqali iqtisodiyotdagi pul aylanmasini kafolatlaydi. M.Xalilova o'z taddiqotlarida bank axborot texnologiyalariga investitsiya kiritish orqali xavflarni boshqarish va likvidlikni ta'minlash vazifalarini samarali amalga oshirishini ta'kidlaydi [9].

Bankning yana bir muhim funksiyasi - moliyaviy vositachilik, ya'ni sarmoyadorlar bilan sarmoyaga muhtoj sub'ektlar o'rtasida resurslarni qayta taqsimlashdir. Bu funksiyani to'laqonli bajarish uchun bank moliyaviy jihatdan barqaror bo'lishi shart. D. Yuldashev fikricha, barqaror banklar orqali noturar sohalardan yuqori samarali investitsiyalarga mablag' yo'naltiriladi va bu iqtisodiy o'sish sur'atlarini rag'batlantiradi [10].

Tijorat banklari faoliyati turli xavflar bilan bog'liq. Shu bois, moliyaviy barqarorlik xavf-xatarlarni aniqlash, baholash va samarali boshqarish qobiliyati bilan ham ifodalanadi. Barqaror banklar xavflarni diversifikatsiyalash, sug'urta va xedjing kabi mexanizmlar orqali qayta taqsimlaydi. Sh. Kamolova ta'kidlaganidek, O'zbekiston bank tizimida xavflar boshqaruvini institutsional jihatdan rivojlantirish - moliyaviy barqarorlikning uzvii qismidir [11].

Nihoyat, barqaror banklar jamiyatning turli qatlamlariga moliyaviy xizmatlarni keng

qamrovda taqdim etishi, iqtisodiy inklyuzivlikni kuchaytirishi mumkin. J. Stiglis bu holatni ijtimoiy barqarorlikning kafolati sifatida ko'radi [12]. G.T. Norbayev esa O'zbekistonda qishloq hududlarida

mikromoliya xizmatlarini kengaytirish, ayniqsa, kichik tadbirkorlikni rivojlantirishda bank barqarorligining ahamiyatini alohida qayd etadi [13].

1-jadval

Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligiga oid ilmiy qarashlar va nazariy yondashuvlar*

Nº	Muallif(lar) / Ilmiy maktab	Nazariya / Yondashuv nomi	Asosiy ta'rif va mazmun	Izoh va shark
1.	Mishkin F. (2006)	Institutsional yondashuv	Bank moliyaviy barqarorligi – bu uning likvidlik, kapital va foydabarqarorlik ko'rsatkichlari orqali xavf-xatarlarga bardosh berish qobiliyatidir.	Moliyaviy barqarorlik banklar uchun riskni boshqarish va bozor intizomini saqlashdagi asosiy mezon hisoblanadi.
2.	Bazel qo'mitasi (Basel III, 2011)	Regulyator yondashuv	Barqarorlik kapital yetarliligi, likvidlik koeffitsientlari va leverage darajasi orqali baholanadi.	Barqarorlikni xalqaro mezonlarda baholashdagi huquqiy va me'yoriy yondashuv, jahon banki tizimi uchun universal standart sifatida qabul qilingan.
3.	Yudina T.N. (Rossiya)	Model asosida tahlil	Moliyaviy barqarorlik maxsus modellar (CAMELS, Z-score) asosida baholanadi.	Eng ko'p ishlatalidigan tijorat banklari nazoratidagi tahliliy uslublardan biri.
4.	Diamond & Rajan (2005)	Agentlik nazariyasiga asoslangan yondashuv	Banklar "intermediar" sifatida ishonch va intizomga asoslangan muvozanatda faoliyat yuritishi lozim.	Moliyaviy barqarorlik ishonch va institutsional darajadagi munosabatlар bilan belgilanadi.

*Manba: tadqiqotlar asosida muallif tomonidan shakllantirildi.

1-jadvaldan tijorat banklarining moliyaviy barqarorligiga oid ilmiy qarashlar turli yo'nalishlarda shakllanganligini ko'rish mumkin. G'arb olimlari (Mishkin, Diamond & Rajan) bank barqarorligini xavflar boshqaruvi, ishonch va bozor intizomi nuqtai nazaridan baholashsa, xalqaro institutlar (Bazel qo'mitasi) uni normativ ko'rsatkichlar orqali reglamentlashni taklif etadilar.

1-jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, moliyaviy barqarorlikni tushunishda yagona yondashuv mavjud emas. Har bir nazariya muayyan kontekstda va makroiqtisodiy sharoitda o'z afzalliklariga ega. O'zbekiston sharoitida esa integral baholash, makroiqtisodiy bog'liq yondashuv va institutsional qarashlarni uyg'unlashtirish orqali moliyaviy barqarorlikka nisbatan kompleks yondashuvni shakllantirish ilgari suriladi.

Fikrimizcha, tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi ularning barcha asosiy

vazifalarini amalga oshirishda, ya'ni jamg'armalarni jalg qilish, kreditlash, to'lov xizmatlari, investitsiya, xavflarni boshqarish va moliyaviy inklyuzivlikni ta'minlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Bu barqarorlik bankning ichki boshqaruv madaniyati, makroiqtisodiy muhitga moslashuvchanligi va davlat tomonidan tartibga solish darajasi bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bois, moliyaviy barqarorlik nafaqat bankning, balki butun moliya tizimining funksional va institutsional poydevorini tashkil etadi.

Moliyaviy barqarorlik tijorat banklarining likvidligi, kapital yetarliligi va daromadliligi bilan bevosita bog'liq bo'lib, bank faoliyatining tizimli hamda uzlusiz amalga oshirilishi, iqtisodiy turbulentlikka qarshi bardosh berishi, mijozlar va bozor ishtiroychilari ishonchiga sazovor bo'lishiga xizmat qiluvchi asosiy strategik holat hisoblanadi. Ushbu barqarorlikni shakllantirishda va mustahkamlashda

bankning likvidlik, kapital yetarliliqi va daromadliligi (rentabelligi) kabi ko'rsatkichlari hal qiluvchi o'rinn tutadi. Ularning har biri moliyaviy barqarorlikning funksional omili

bo'lib, ular o'rtasidagi dinamik muvozanatning buzilishi tijorat bankining xavfli holatlarga tushib qolishiga sabab bo'lishi mumkin.

2-jadval

Moliyaviy barqarorlikni ta'minlovchi asosiy ko'rsatkichlar va ularning o'zaro ta'siri*

Ko'rsatkich nomi	Ta'rifi	Moliyaviy barqarorlikka ta'siri	O'zaro bog'liqliliklari
Likvidlik	<i>Bankning qisqa muddatli majburiyatlarini o'z vaqtida ado etish qobiliyati</i>	<i>To'lov qobiliyatini ta'minlaydi, ishonchni mustahkamlaydi</i>	<i>Kapital va rentabellik likvid aktivlarni ta'minlaydi</i>
Kapital yetarliliqi	<i>Xavf-xatarlarni qoplash va yo'qotishlarni bartaraf etish imkoniyati</i>	<i>Bank xavflarga qarshi immunitetga ega bo'ladi</i>	<i>Foyda kapitalni to'ldiradi; kapital, likvidlik buferi</i>
Rentabellik (Daromadlilik)	<i>Bankning daromad olish qobiliyati va faoliyat samaradorligi</i>	<i>Uzoq muddatli rivojlanish va kapital qayta shakllanishiga asos bo'ladi</i>	<i>Kapital va likvidlikni saqlash uchun foyda zarur</i>

Manba: tadqiqotlar asosida muallif tomonidan shakllantirildi.

2-jadvaldan ko'rinish turibdiki, moliyaviy barqarorlik tijorat banklari faoliyatining eng muhim mezoni bo'lib, uning asosiy ustunlari - likvidlik, kapital yetarliliqi va rentabellikdir. Ushbu ko'rsatkichlar bir-birini to'ldiruvchi va o'zaro bog'liq mexanizm sifatida faoliyat yuritadi.

Likvidlik - bankning qisqa muddatli majburiyatlarini o'z vaqtida to'lash qobiliyati bo'lib, mijozlar ishonchi va kundalik faoliyatning uzlusizligini ta'minlaydi. Agar likvidlik yetarli bo'lmasa, bank o'z majburiyatlarini bajara olmaydi va ishonchni yo'qotadi.

Kapital yetarliliqi esa bankning xavf-xatarlarga qarshi tura olish qobiliyatini aks ettiradi. U likvidlikni himoya qiladi, bankni turli iqtisodiy shoklardan saqlaydi va barqaror faoliyat yuritishga zamin yaratadi.

Rentabellik - bank faoliyatini samaradorligini ko'rsatuvchi ko'rsatkich bo'lib, foyda yetarli bo'lsa, kapital tiklanadi, likvidlik bazasi mustahkamlanadi. Agar rentabellik past bo'lsa, bu boshqa ko'rsatkichlarning ham zaiflashishiga olib kelishi mumkin.

Shu bois, ushbu ko'rsatkichlar o'rtasidagi muvozanat moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ulardan biri yetishmasligi yoki noto'g'ri

boshqarilishi bankning barqarorligiga tahdid solishi mumkin. Shuning uchun, tijorat banklari moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda ushbu ko'rsatkichlarni tizimli ravishda monitoring qilish va ularga kompleks yondashuvni qo'llashlari shart.

Xulosa va takliflar.

Shuni qayd etish kerakki, birinchи navbatda, likvidlik - bu bankning o'zining kundalik moliyaviy majburiyatlarini (depozitlar qaytarilishi, transaksiyalar, cheklar va boshqa hisob-kitoblar) o'z vaqtida va to'liq bajara olish qobiliyatidir. Zamonaviy tadqiqotchi Ghosh (2020) ta'kidlaganidek, likvidlik - bu bank xavflarini oldindan ilg'ab, operativ qararlar qabul qilish imkonini beradigan "birlamchi bufer" hisoblanadi [14]. M.Tojiyev esa tadqiqotida "bank likvidligi - uning faoliyatining kompleks sifatini tavsifi bo'lib, "bankning moliyaviy barqarorligini aks ettiradi" deb baholaydi [15]. Likvid aktivlar miqdori yetarli bo'lmasan banklarda pul aylanmasi uziladi, ishonch pasayadi va bu moliyaviy barqarorlikni izdan chiqarishi mumkin.

Ikkinchi muhim ko'rsatkich - kapital yetarliliqi. Bu bankning xavf-xatarlarga qarshi qoplama buferi hisoblanib, ehtimoliy

yo‘qotishlarni o‘z kapital hisobidan to‘lash qobiliyatini belgilaydi. Basel III standartida kapital yetarliligi barqarorlikni saqlab qolishning institutsional asosi sifatida ko‘riladi [16]. I.Munteanuning ta’kidlashicha, kapital yetarliligi likvidlikka ham ta’sir ko‘rsatadi: kapital necha barobar mustahkam bo‘lsa, shuncha ko‘proq likvid aktivlarga sarmoya kiritish imkonи tug‘iladi [17]. O‘zbekistonda F.Dodiyev tadqiqotida Banklar o‘z majburiyatlarini to‘liq ba jarishi uchun mijozlari oldida ishonchli imijiga ega bo‘lishi lozim deb hiosblaydi. chunki uning fikricha bu ishonch esa banklarning likvidligi negizidan kelib chiqadi [18].

Uchinchi jihat - daromadlilik (rentabellik). Ushbu ko‘rsatkich bankning foyda olish salohiyatini va biznes modelining samaradorligini aks ettiradi. Daromadli faoliyat olib boradigan banklar o‘z kapital bazasini oshirish, zaxiralar yaratish va faol xavf boshqaruvini amalga oshirish imkoniga ega bo‘ladi.

Bularning barchasi shundan dalolat beradiki, moliyaviy barqarorlikni ta’minlovchi

mazkur uch ko‘rsatkich o‘zaro chambarchas bog‘liqdir. Biridagi salbiy o‘zgarish ikkinchisiga ham ta’sir qiladi. Masalan, past rentabellik kapitalni tiklash imkoniyatini cheklaydi, kapital yetarli emasligi esa likvidlikni ta’minlash uchun jamg‘arma manbalarini tugashiga olib keladi. Shu sababli, zamonaviy tahlillarda “moliyaviy barqarorlik uchburchagi” (Financial Stability Triangle) tushunchasi keng qo‘llaniladi. Ushbu modelda likvidlik – qisqa muddatli barqarorlik, kapital – xavflarga qarshi immunitet, rentabellik – uzoq muddatli rivojlanish poydevori sifatida ko‘riladi.

Fikrimizcha, moliyaviy barqarorlik - bu faqat ma’lum bir ko‘rsatkichni optimal darajada ushlab turish emas, balki ularning o‘zaro muvozanatini ta’minlash, iqtisodiy sharoitlarga muvofiqlashtirish va xavflarga to‘liq javob bera olish qobiliyatidir. Likvidlik, kapital yetarliligi va rentabellik - bu moliyaviy mustaqillik, ishonch va uzlusiz rivojlanishning asosiy tayanch nuqtalari hisoblanadi. Ularning har biri mustaqil qiymatga ega bo‘lgan holda, bir-birini to‘ldiradi va moliyaviy barqarorlikni real ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mishkin F. Экономика денег, банковского дела и финансовых рынков. – М.: Вильямс, 2014. – 832 с.
2. King R.G., Levine R. Finance and Growth: Schumpeter Might Be Right // The Quarterly Journal of Economics. – 1993. – Vol. 108, No. 3. – P. 717–737., Levine R. Financial Development and Economic Growth: Views and Agenda // Journal of Economic Literature. – 1997. – Vol. 35, No. 2. – P. 688–726.
3. Basel Committee on Banking Supervision. Basel III: A global regulatory framework for more resilient banks and banking systems. – Basel: Bank for International Settlements, 2011. – 76 p.
4. Skott D., Rouz P. Bankovskiy menedjment. – М.: Delo, 2010. – 784 s.
5. Stiglitz J.E. Globalization and Its Discontents. – New York: W.W. Norton & Company, 2002. – 288 p.
6. Abdullayeva Sh. Bank ishi. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2017. – 732 b., Tog‘ayev S.S. Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash yo‘llari // Servis ilmiy-amaliy jurnal, 2021, maxsus son, Axmedov M.U. Tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta’minlash va investitsion faolligini oshirish masalalari // Iqtisodiyot va moliya. 2011. №10.
7. Tog‘ayev S.S. Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash yo‘llari // Servis ilmiy-amaliy jurnal, 2021, maxsus son.
8. Abdullayeva Sh. Bank ishi. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2017. – 732 b.

9. Xalilova M.A. Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini oshirish yo'llari // CAJMRMS. 2025. №5-2.
10. Yuldashev, D.M. Moliyaviy vositachilik va banklar faoliyati: nazariy yondashuvlar va amaliyot. – T.: "Moliya", 2022. – 198 b.
11. Kamolova, Sh.A. Tijorat banklarida xavflarni boshqarish tizimini takomillashtirish masalalari // Moliya va bank. – 2021. – №2. – B. 41-48.
12. Stiglitz, J.E., & Weiss, A. Credit Rationing in Markets with Imperfect Information // The American Economic Review. – 1981. – Vol. 71, No. 3. – P. 393-410.
13. Norbayev G.T. Qishloq xo'jalik tuzilmalarini moliyalashtirish va kreditlash mexanizmining nazariy asoslari // CAJEI. 2024. №2-1.
14. Ghosh, A. Liquidity and bank stability: evidence from emerging markets. // Journal of Banking & Finance. – 2020. – Vol. 113. – P. 105735.
15. Tojiyev M.M. Tijorat banklari likvidligini ta'minlash risk boshqaruvining muhim omili sifatida // Iqtisodiyot va moliya. 2018. №7.
16. Basel Committee on Banking Supervision. Basel III: A global regulatory framework for more resilient banks and banking systems. – Basel: Bank for International Settlements, 2011. – 76 p.
17. Munteanu, I. Capital adequacy and banking performance. // Financial Studies Journal. – 2017. – Vol. 21, No. 3. – P. 63-75.
18. Dodiyev F.O., Abdusaidov A.A. Tijorat banklari likvidligini ta'minlash borasidagi xalqaro tajriba // Iqtisodiyot va moliya. 2015. №4.